Jinoyatchi shaxsning tergov harakatlarining psixologik jixatlari

Xaydarjon Odilboyevich Jurayev
Xudoberdi Husanboy-o‘g‘li Turdaliyev
Shoxinur Jaxongir-o‘g‘li Zokirjonov
University of business and science

Annotatsiya: Mazkur maqolada jinoyatchi shaxs bilan bog‘liq tergov harakatlarining psixologik jihatlari, tergov jarayonida shaxs xulq-atvorini o‘rganish, uning emotsional holati, individual-psixologik xususiyatlari hamda muloqot jarayonidagi reaksiyalarini tahlil qilish masalalari yoritilgan. Shuningdek, so‘roq qilish, yuzlashtirish va boshqa tergov harakatlarida psixologik bilimlardan foydalanishning ahamiyati ochib berilgan. Tergov jarayonida psixologik yondashuvning samaradorligi va uning amaliy imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: jinoyatchi shaxs, tergov harakatlari, tergov psixologiyasi, psixologik xususiyatlar, so‘roq qilish, yuzlashtirish, muloqot, xulq-atvor, emotsional holat

Psychological Aspects of Investigative Actions Involving the Offender

Khaydarjon Odilboyevich Jurayev
Khudoberdi Khusanboy-o‘g‘li Turdaliyev
Shokhinur Jakhongir-o‘g‘li Zokirjonov
University of Business and Science

Abstract: This article examines the psychological aspects of investigative actions involving the offender's personality. It focuses on studying individual behavior during investigations, analyzing emotional states, individual psychological characteristics, and reactions during communication. Particular attention is paid to the application of psychological knowledge in interrogation, confrontation, and other investigative procedures. The article also highlights the importance and practical potential of psychological approaches in the criminal investigation process.

Keywords: offender’s personality, investigative actions, investigative psychology, psychological characteristics, interrogation, confrontation, communication, behavior, emotional state

(cc) BY

KIRISH

Bugungi kunda jinoyatchilikka qarshi kurashish, jinoyatlarni o‘z vaqtida aniqlash va tergov jarayonining samaradorligini oshirishda psixologik bilimlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki jinoyatni sodir etgan shaxsning xulq-atvori, individual-psixologik xususiyatlari, motivlari va emotsional holatini o‘rganish tergov harakatlarini to‘g‘ri tashkil etishga yordam beradi. Shu jihatdan jinoyatchi shaxsning psixologik xususiyatlarini tahlil qilish yuridik va kriminal psixologiyaning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Tergov jarayoni nafaqat huquqiy, balki murakkab psixologik jarayon hamdir. Xususan, so‘roq qilish, yuzlashtirish, ko‘rsatmalarni hodisa joyida tekshirish kabi tergov harakatlarida tergovchi va protsess ishtirokchilari o‘rtasidagi muloqot, o‘zaro ta’sir, hissiy reaksiyalar va xulq-atvor namoyon bo‘ladi. Bunday vaziyatlarda shaxsning psixologik holatini hisobga olish, uning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda muloqot olib borish tergov faoliyatining sifatini oshirishga xizmat qiladi. Jinoyatchi shaxsning psixologik xususiyatlarini o‘rganishda uning motivatsiyasi, xarakteri, temperament xususiyatlari, stressga munosabati, emotsional barqarorligi va shaxslararo munosabatlarini tahlil qilish muhimdir. Shu bilan birga, tergov jarayonida kuzatiladigan mimika, imo-ishora, nutq va boshqa xulq-atvor belgilarini alohida holda aybdorlik yoki yolg‘onning isboti sifatida baholash mumkin emas. Ular boshqa dalillar va vaziyat xususiyatlari bilan birgalikda tahlil qilinishi lozim. Mazkur mavzuning dolzarbligi jinoyatchi shaxsning individual-psixologik xususiyatlarini chuqur o‘rganish, tergov harakatlarida psixologik yondashuvlardan samarali foydalanish hamda tergovchi faoliyatida kasbiy-psixologik kompetensiyalarni rivojlantirish zarurati bilan belgilanadi. Ushbu masalalarni o‘rganish tergov jarayonida inson omilining o‘rnini anglash va psixologik bilimlarning amaliy ahamiyatini ochib berishga xizmat qiladi.

Dastlabki tergov faoliyati jinoyat ishida haqiqatni aniqlash maqsadida dalillar bilan ishlash jarayonini qamrab olgan bo‘lib, uch xil mazmundagi harakatlardan tashkil topgan. Muhimligiga ko‘ra birinchi tizimni tergov harakatlari tashkil etsa, keyingi o‘rinda dalillarga baho berish jarayoni va natijasi hisoblangan ishga oid muayyan xulosalarga kelish va qaror qabul qilish faoliyati turadi. Uchinchi tizimni tergov harakatlarini o‘tkazish va aniqlangan ma’lumotlardan foydalanish imkonini yaratish maqsadiga xiz-mat qiladigan boshqa protsessual harakatlar (majburlov choralari, ishtirok-chilarning huquq va erkinliklarini ta’minlashga qaratilgan harakatlar) tash-kil etadi. Ushbu tizimda samaradorlik omili sifatida psixologik bilimlarni talab etadiganlari tergov harakatlari hisoblanadi. Dastlabki tergov fao-liyatining psixologik asoslari haqida gap ketganda, tergov harakatlarining psixologik tavsifiga alohida to‘xtalish to‘g‘ri bo‘ladi.

Tergov harakatlari deganda jinoyat ishini huquqiy jihatdan to‘g‘ri hal qilish

(cc) BY

maqsadida ish uchun ahamiyatli bo‘lgan dalillarni aniqlash, to‘plash, tekshirish uchun o‘tkaziladigan protsessual harakatlar tushuniladi.

Psixologik nuqtai nazardan sodir bo‘lgan jinoyat (hodisa) haqidagi to‘liq haqiqatni aniqlash maqsadida jinoyat tafsilotlariga oid ma’lumotlar beruvchi ashyolarni, izlarni qidirib topish, shunday ma’lumotlarga ega shaxslardan muloqotlar yordamida ko‘rsatmalarni olish, olingan ma’lu-motlarni tahlil qilish, ushbu jarayonlarda yuzaga keladigan barcha psixolo-gik to‘siqlarni bartaraf etishga qaratilgan harakatlar *tergov harakatlari* deyiladi. Ushbu ta’rif kengroq sharhlansa, tergov harakatlari jarayonida psi-xologik bilimlarning o‘rni va ahamiyati naqadar chuqurligi ma’lum bo‘ladi. Jinoyat ishi uchun ahamiyatli bo‘lgan ma’lumotga ega ashyolar va izlarni qidirish uchun avvalo jinoyat haqidagi xabarda yoki xabarni tekshirish natijasida ma’lum bo‘lgan hodisa tafsilotlarini tahlil qilib, aynan qaysi ashyolar va izlar qidiruv obyektlari bo‘lishi zarurligi haqida to‘g‘ri to‘xtamga kelish, shunday ashyolar va izlar aynan qayerlarda bo‘lishi mumkinligiga ham oydinlik kiritish talab etiladi. Bu jarayonlar xabar yoki materiallarda aks etgan ma’lumotlarni qabul qilish, tahlil qilish, shuning dek, qidiruvni tashkil etish va amalga oshirish uchun qonunda belgilangan tartibda harakatlanish maqsadida tergovchi (surishtiruvchi) tasavvurida aks etadigan psixik hodisalardir. Daliliy ahamiyatga ega ma’lumotlarni biladi-gan shaxslardan ushbu ma’lumotlarni olishda ham, avvalo, bu shaxslar kimligi, ularning tergovga munosabatlari, psixologik xususiyatlari, ular biladigan ma’lumotlar hajmi, ular bilan muloqotga kirishish uchun zarur shart-sharoitlar, muloqot davomida vujudga kelishi mumkin bo‘lgan psi-xologik to‘siqlar va ularni bartaraf etish yo‘llari, bevosita muloqotlarni amalga oshirish va olingan ma’lumotlarni (shaxslarning o‘zlarini tutishlari, jinoyat hodisasi haqida bergan ko‘rsatmalari) tahlil qilish, ayrim xulosa-larga kelish borasida (tergovchining tasavvurida) psixik hodisalar ro‘y beradi. Shuningdek, har bir jinoyat hodisasi takrorlanmas va o‘ziga xos tarzda ro‘y berishi, ishda qatnashadigan shaxslar ham doimiy ravishda o‘zgarishi, xususan bir shaxs dastlabki suhbatda boshqacha, keyingi muloqot jarayonida o‘zgacha kayfiyatda va munosabatda bo‘lishi hisobga olinsa, tergovchidan tegishli tergov harakatini o‘tkazish paytida vujudga keladigan psixologik muhitdan samarali foydalanish uchun zarur psixolo-gik bilimlarni bilish va amalda qo‘llash talab etiladi. Bunda tergovchining ruhiy holati turli sharoitlarda turlicha bo‘lishi inobatga olinsa, psixologik bilimlarning tergov harakatlarini o‘tkazishdagi ahamiyati juda muhim va beqiyosligi yaqqol seziladi. Tergov harakatlarini o‘tkazish taktikasi tergov faoliyati bilan bir vaqtda vujudga kelgan, ammo davr o‘tishi bilan mazmunan va shaklan rivojlanib, takomillashgan. Taktikaning takomillashuvi albatta psixologik bilimlarning taraqqiyoti bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan. Aniqroq ifodalangan-da, amaliy psixologiyaning taraqqiyoti taktikaga jiddiy ta’sir etgan. Ter-govchilik

(cc) BY

kasbining yetuklik darajasiga bevosita ko‘p yillik tajribalar aso-sida erishilgani ham tergov faoliyatida amaliy psixologiyaning o‘rni be-qiyosligini bildiradi. Tergov harakatlarini o‘tkazish taktikasiga oid bilimlar rivoji ushbu harakatlarda psixologik bilimlardan yanada kengroq foydala-nishni taqozo etadi. Shuningdek, har qaysi tergov harakatiga alohida to‘x-talganda, ularning psixologik xususiyatlarini ham chuqurroq tahlil qilish ushbu maqsadga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida belgilangan va bevosita dalillarni aniqlash, to‘plash va tekshirish uchun o‘tkaziladigan tergov harakatlariga quyidagilar kiradi:

1. Ko‘zdan kechirish.
2. Ekspertiza.
3. So‘roq qilish.
4. Yuzlashtirish.
5. Ko‘rsatuvlarni hodisa sodir bo‘lgan joyda tekshirish.
6. Tanib olish uchun ko‘rsatish.
7. Guvohlantirish.
8. Eksperiment.
9. Tintuv.
10. Olib qo‘yish.
11. Narsa va hujjatlarni taqdim qilish.
12. Telefon va boshqa so‘zlashuv qurilmalari orqali olib boriladigan so‘zlashuvlarni eshitib turish.
13. Pochta-telegraf jo‘natmalarini xatlash.

Ekspertiza tekshiruvi uchun namunalar olish va murdani eksgumasiya qilish boshqa tergov harakatlarini o‘tkazishga sharoit yaratadi.

Tergov harakatlarining huquqiy mazmuni umumiy maqsadga ko‘ra bir xil bo‘lsa, shakli, obyekti, o‘tkazish tartibi va xususiyatlariga ko‘ra farq qiladi. Ko‘zdan kechirish - ko‘rish va ko‘rikdan o‘tkazish; ekspertiza - max-sus tadqiqot o‘tkazish; so‘roq qilish - suhbat va savol-javob; yuzlashtirish - ikki kishi bilan qayta so‘roq o‘tkazish; ko‘rsatuvlarni hodisa sodir bo‘lgan joyda tekshirish - hodisa sodir bo‘lgan joyda qayta so‘roq o‘tkazish; tanib olish uchun ko‘rsatish - ta’riflangan obyektni ko‘rsatib qayta so‘roq qilish; guvohlantirish - shaxs badanini ko‘zdan kechirish; eksperiment - ko‘rsatmalarni tajriba harakatlarini o‘tkazish orqali tekshirish; tintuv - obyektni qidirib topish va olish; olib qo‘yish - obyektni turgan joyidan olish; taqdim qilish - ixtiyoriy topshirish; telefon so‘zlashuvlarini eshitib turish - so‘zlashuvlarni yozib olish va eshitish; pochta-telegraf jo‘natmalarini xatlash - jo‘natmalarni ushlab turish va ko‘zdan kechirish; namunalar olish - obyektning izidan va tarkibidan namuna olish; eksgumatsiya -

(cc) BY

murdani qabrdan qazib chiqarishdir. Tergov harakatlarining huquqiy mazmuni nisbatan yaqin bo‘lsa-da, psixologik mazmuni bir-biridan ancha farq qiladi.

Psixologik jihatdan ko‘zdan kechirish - obyektni sinchkovlik bilan kuzatib, undan ish uchun ahamiyatli bo‘lgan izlar va ma’lumotlarni qidi-rish, topish va olish jarayonida fikrlash, idrok qilish, tasavvur qilish, xulo-salash, tahlil qilish kabi psixik hodisalardan iborat harakatlar yig‘indisidir. *Ekspertiza deganda esa*, maxsus tadqiqot o‘tkazish orqali obyektda mav-jud ish uchun ahamiyatli ma’lumotlarni o‘rganish, tahlil qilish va tahlil natijalarini yozma ifodalash bilan kechadigan psixik jarayonlardan iborat harakatlar tushuniladi. *So‘roq qilish* - ish uchun ahamiyatli ma’lumotlarga ega shaxsdan ushbu ma’lumotlarni muloqotlar qilish orqali olish va tahlil qilish jarayonida ro‘y beradigan psixik hodisalardan iborat harakat hisobla-nadi. *Yuzlashtirish* esa, ish uchun ahamiyatga ega, lekin mazmunan qara-ma-qarshi ko‘rsatmalar bergan shaxslar bilan bir vaqtda muloqotlar qilish, mavjud to‘sqinliklarni bartaraf etib, qarama-qarshilikning sabablarini aniq-lash bilan kechadigan psixik jarayonlardan iborat harakatlardir. *Ko‘rsatuv-larni hodisa sodir bo‘lgan joyda tekshirish* deganda, shaxs bilan hodisa sodir bo‘lgan joyda qayta muloqot o‘tkazish, kuzatish orqali u bergan ma’lumotlarni va mavjud tusmollarni tekshirishga qaratilgan psixik jara-yonlardan iborat harakatlar tushuniladi. *Tanib olish uchun ko‘rsatish deganda* esa, ma’lumotlarning aynan qaysi obyekt haqida ekanligini aniq-lash uchun shaxs bilan qayta muloqot o‘tkazish, olingan ma’lumotlarni tahlil qilishda ifodalanadigan psixik jarayonlardan iborat harakatlar tushu niladi. *Guvohlantirish* - shaxs badanini ko‘rikdan o‘tkazishda ro‘y bera-digan psixik jarayonlardan iborat harakatlar hisoblanadi. *Tintuv va olib qo‘yish* - ish uchun ahamiyatli bo‘lgan obyektni joyidan olishda tintilayot-gan yoki olib qo‘yish o‘tkazilayotgan shaxslar bilan munosabatga kiri-shish, ularga ta’sir o‘tkazish bilan bog‘liq psixologik jarayonlardir. *Eksperiment* olingan ma’lumotlarda aks etgan hodisa yoki uning elementini amalda bajarish, tajriba harakatlarini o‘tkazishda kuzatish va tahlil qilish-dan iborat psixik jarayonlarni qamrab oluvchi harakatlardir. *Taqdim qilish deganda*, berilayotgan obyektni olish, uni ko‘rikdan o‘tkazish, mazmunan o‘rganish (o‘qib ko‘rish) va tahlil qilishda ro‘y beradigan psixik jarayon-lardan iborat harakatlar tushuniladi. *Telefon so‘zlashuvlarini eshitib turish deganda*, so‘zlashuv qurilmalari orqali amalga oshirilayotgan suhbatni bilvosita eshitib, ma’lumotlar olish va ularni tahlil qilish bilan kechadigan psixik jarayonlarni aks ettirgan harakatlar tushuniladi. *Pochta-telegraf jo‘natmalarini xatlash deganda*, jo‘natmalarning ushlanishi, ko‘rikdan o‘tkazilishi, mazmunan o‘rganilishida anglash, idrok etish, fikrlash va tahlil qilish bilan bog‘liq psixik jarayonlar tushuniladi. *Namunalar olish deganda*, muayyan obyektning xususiyatlarini aks ettiruvchi izidan, tarkibidan namuna olishda fikrlash, yuzaga keladigan psixologik to‘siqlarni bartaraf etish bilan

(cc) BY

kechadigan psixik jarayonlar tushuniladi. *Murdani eks-gumatsiya qilish deganda* esa, ish uchun ahamiyatli ma'lumotlarni to‘plash va tekshirish uchun sharoit yaratish maqsadida qabrdan murdani qazib chiqarishni tashkil etish, uni amalga oshirish jarayonlarida vujudga keladi-gan to‘siqlarni bartaraf etishga qaratilgan psixik jarayonlar tushuniladi.

XULOSA sifatida jinoyatchi shaxsning tergov harakatlaridagi psixologik jihatlarini o‘rganish kriminal psixologiyaning muhim amaliy yo‘nalishlaridan biridir. Tergov jarayonida shaxsning individual-psixologik xususiyatlari, xulq-atvori, motivlari, emotsional holati va muloqot uslubini hisobga olish tergov harakatlarini samarali tashkil etishga yordam beradi. So‘roq qilish, yuzlashtirish, ko‘rsatmalarni hodisa joyida tekshirish kabi jarayonlarda psixologik bilimlardan foydalanish tergovchi va protsess ishtirokchilari o‘rtasidagi muloqotni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish imkonini beradi. Shu bilan birga, shaxsning mimikasi, imo-ishoralari, ovozi va fiziologik reaksiyalarini baholashda ehtiyotkorlik talab etiladi. Chunki bunday belgilar har doim ham yolg‘on yoki aybdorlikni anglatmaydi. Demak, tergov faoliyatida psixologik yondashuvdan foydalanish inson omilini chuqur anglash, tergov jarayonidagi murakkab vaziyatlarni to‘g‘ri baholash va qonuniy hamda asosli qarorlar qabul qilishda muhim ahamiyatga ega.

TAVSIYALAR

1. Tergovchilarning psixologik bilim va kasbiy muloqot ko‘nikmalarini muntazam rivojlantirish.
2. Tergov harakatlarida jinoyatchi shaxsning individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olish.
3. So‘roq jarayonida psixologik bosim va majburlash usullaridan foydalanmasdan, samarali muloqot strategiyalarini qo‘llash.
4. Shaxsning emotsional holati va xulq-atvor belgilarini vaziyat hamda boshqa dalillar bilan birgalikda tahlil qilish.
5. Tergov jarayonida psixolog-mutaxassislar bilan hamkorlikni rivojlantirish.
6. Tergovchilarda stressli vaziyatlarda o‘z hissiyotlarini boshqarish va psixologik barqarorlikni saqlash ko‘nikmalarini shakllantirish.
7. Tergov harakatlarini tashkil etishda inson huquqlari, qonuniylik va kasbiy etika tamoyillariga qat'iy rioya qilish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Usmanova A.A., Norboev A.N.. YUridicheskaya psixologiya. TGYUI. 2005 g.
2. Maxsudova M.A. Muloqot psixologiyasi. ―Turon-iqbol‖ nashr. T. 2006 -118 b

(cc) BY

3. Umarov B., Xolnazarova M. X. Yuridik psixologiya. Darslik. Guliston. GulDU.2022. -229 b.

4. Norboyev A.N., Usmonova A.A. Yuridik psixologiya. O`quv qo`llanma. T.2006.-67

5. Исмоилов К. Ҳуқуқий психология ҳамда судьяларнинг касбий-малакавий ҳуқуқий психологияси тушунчалари. Т. ―Ношир нашр. 2011. -26 б.

6. Dastlabki tergov faoliyati psixologiyasi: Darslik / B.N. Sirliyev, I.A. Sottiyev va boshq.; Sh.T. Ikramovning umumiy tahririda. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2015. – 329 b.

7. Odilboyevich, J. X. (2025). Ta’lim tizmda imkoniyati cheklangan bollalarni o ‘qitishda inklyuziv ta’limning o ‘rni va ahamiyatining pedagagik va psixologik jixatlari. Research Focus, 4(Special Issue 2), 132-140.

8. Odilboyevich, J. X. (2025). O ‘smirlik davrida xarakter aksentuatsiyasining shakllanishiga ijtimoiy muhitning ta’siri. Central Asian Journal of Education and Innovation, 4(4), 150-153.

9. Odilboyevich, J. X. THE INFLUENCE OF ACCENTUATION OF CHARACTER AND TENDENCY TO PSYCHOPATHY ON THE FORMATION OF DEVIANT BEHAVIOR IN ADOLESCENTS. THE ROLE OF DISCIPLINE" INTRODUCTION OF MEDISICAL PLANTS" IN THE FORMATION OF COMPETENCE OF SPECIALISTS IN THE TECHNOLOGY OF GROWING MEDISICAL PLANTS, 94.

10. Қаюмов, Б. З. Ў., & Абдураҳмонов, О. А. Ў. (2021). ТАЛАБАЛАРДА ШАХСИЙ ВА ИНТЕЛЛЕКТУАЛ ФАЗИЛАТЛАРНИ ШАКЛЛАНТИРИШ МЕХАНИЗМЛАРИ. Scientific progress, 1(6), 750-754.

11. Qayumov Baxtiyor. (2024). THE CORRELATION RELATIONSHIP OF THE DEVELOPMENT OF CREATIVITY IN ADOLESCENTS WITH ACHIEVEMENT MOTIVATION. Next Scientists Conferences, 1(01), 24–27. Retrieved from https://nextscientists.com/index.php/science-conf/article/view/261

12. Baxtiyor, Q. (2024). CREATIVITY AS A RESEARCH SUBJECT IN PSYCHOLOGICAL RESEARCH. American Journal Of Social Sciences And Humanity Research, 4(07), 76-80.

13. Baxtiyor, Q. (2023). O ‘SMIR SHAXSIDA KREATIVLIKNI SHAKLLANTIRISHDA TA’LIM TIZIMINING O ‘RNI. Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences, 178-183.